XALQ DEPUTATLARI OLMALIQ SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 15 - iyul VI-74-59-10-147-K/23 Olmaliq shahar hokimligi

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining 2023 - yil 2-fevralda imzolangan “Olmaliq shahridagi ayrim mahallalarning hududlari chegaralariga o‘zgartirish kiritish, ba’zi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida”gi VI-64-8-10-147-K/23 sonli qarori va uning 3-ilovasiga o‘zgarish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qaroriga asosan **Olmaliq shahridagi** Olmaliq shahridagi ayrim mahallalar hududlari chegaralariga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha ishchi guruhining **taklifini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining 2023-yil 14-iyul kuni o‘tkazilgan sessiyasida Kengash**

QAROR QILADI:

1. Olmaliq shahridagi ayrim mahallalar hududlari chegaralariga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha ishchi guruhi taklifi va Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi doimiy komissiyalarining qo‘shma majlisida qabul qilingan hulosasi ma’qullansin.

2. Mazkur qaror normativ tusga ega bo‘lgan qaror ekanligi inobatga olinib,

sessiya qarori loyihasi 2023-yil 23-iyundan 2023-yil 8-iyulga qadar regulation.gov.uz (ID:82228) muhokamalar partalida jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilganligi, hamda shahar Adliya bo‘limi tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tgazilganligi inobatga olinsin.

3. Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining 2023-yil 2-fevralda imzolangan “Olmaliq shahridagi ayrim mahallalarning hududlari chegaralariga o‘zgartirish kiritish, ba’zi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida”gi VI-64-8-10-147-K/23-sonli qarorining 2-bandi 3-xatboshiga quyidagicha o‘zgartirish kiritilsin:

“Uchinchi, “Namuna” mahallasi tarkibidagi “Suyurtepa” (qishlog‘i) hududi (jami 35 ta aholi xonadoni, 1 ta ko‘cha va 162,767gektar yer maydoni bilan) Olmaliq shahar “Muqumiy” mahallasi tarkibiga o‘tkazilsin va Olmaliq shahar “Muqumiy” mahallasining hududlari chegaralari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.” jumlalari

“Uchinchi, “Namuna” mahallasi tarkibidagi “Suyurtepa” (qishlog‘i) hududi (jami 35 ta aholi xonadoni, 1 ta ko‘cha va 124,467 gektar yer maydoni bilan) Olmaliq shahar “Muqumiy” mahallasi tarkibiga, “Namuna” mahallasi tarkibidagi “Suyurtepa” (qishlog‘i) hududidagi 38.3 gektar aholi yashash punktlarisiz yer maydonlari Olmaliq shahar “Abdulla Qahhor” mahallasi hududi tarkibiga o‘tkazilsin va Olmaliq shahar “Muqumiy” mahallasining hamda Olmaliq shahar “Abdulla Qahhor” mahallasining yangi hududlari chegaralari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin” tarzida o‘zgartirilsin.

4. Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining 2023-yil 2-fevralda imzolangan “Olmaliq shahridagi ayrim mahallalarning hududlari chegaralariga o‘zgartirish kiritish, ba’zi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida”gi VI-64-8-10-147-K/23 sonli qarorining 3-ilovasi ilovadagi tarizda o‘zgartirilsin.

5. Olmaliq shahar hokimligi axborot xizmati (Ro‘ziyeva)ga mazkur qarorning ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qaror imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.


7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi doimiy komissiyasi raisi K.Ibragimov va Xalq deputatlari Olmaliq

shahar Kengashi kotibiyati mudiri E.Abdurayimov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash Rahbari **Q.Xamdamov**


Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2023-yil 15-iyuldagi
VI-74-59-10-147-K/23-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining qaroriga
3-ilova



Olmaliq shahar “Abdulla Qahhor” mahallasining yangi hududi chegarasi (Piskent tumanining sobiq “Namuna” mahallasidan o‘tgan yer maydonlari bilan)

Olmaliq shahar “Muqumiy” mahallasining yangi hududi chegarasi



(Piskent tumanining sobiq “Namuna” mahallasidan o‘tgan yer maydonlari bilan)